



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

## **“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI**

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

### **TAHRIRIYAT KENGASHI**

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**  
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA				
1.	Шаисламова Кабилевна	Наргиза	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi		O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Axmadaliyevich	Avazbek	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich		Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	37





## BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Sobirov Otabek Olimjonovich**



*Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),  
Buxgalteriya hisobi kafedrasasi dotsenti,  
Namangan davlat texnika universiteti,  
Namangan, O‘zbekiston.*

*Email: [osobirov@gmail.com](mailto:osobirov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-0415-0802*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshqaruv hisobining konseptual tarkibi borasidagi ilmiy tadqiqotlar sharhi bilan tanishish mumkin. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari yoritilgan bo‘lib, boshqaruv hisobini shakllanishiga ta‘sir etgan omillar, shuningdek boshqaruv hisobini bugungi kundagi rivojlanish holati tahlili bayon etilgan. Maqolada boshqaruv hisobini rivojlantirishda me‘yoriy huquqiy-hujjatlarni o‘rni ham ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari maqolada boshqaruv hisobini tadqiq etgan xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarni tadqiqotlari va yondashuvlari bilan ham tanishib chiqish mumkin. Maqola yakunida esa boshqaruv hisobining rivojlantirish borasida xulosa va ilmiy takliflar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Boshqaruv hisobi, konseptual asoslar, xo‘jalik hisobi, xarajatlar, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy tahlil, javobgarlik markazlari, axborotlarni uzatish, zamonaviy buxgalteriya hisobi.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА

**Собиров Отабек Олимжонович**

*Доктор экономических наук (DSc),  
Доцент кафедры бухгалтерского учета,  
Наманганский государственный технический университет,  
Наманган, Узбекистан.*

*Email: [osobirov@gmail.com](mailto:osobirov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0002-0415-0802*

**Аннотация.** В данной статье представлен обзор научных исследований по концептуальной структуре управленческого учета. Освещены концептуальные основы организации управленческого учета в хозяйствующих субъектах, описаны факторы, повлиявшие на формирование управленческого учета, а также проведён анализ современного состояния развития управленческого учета. В статье также рассматривается роль нормативно-правовых документов в развитии управленческого учета. Кроме того, в статье представлен обзор исследований и подходов зарубежных и отечественных экономистов, изучавших управленческий учет. В заключение статьи представлены выводы и научные предложения по развитию управленческого учета.

**Ключевые слова:** управленческий учет, концептуальные основы, экономический учет, затраты, финансовая отчетность, финансовый анализ, центры ответственности, передача информации, современный учет.





## CONCEPTUAL BASIS OF ORGANIZING MANAGEMENT ACCOUNTING

Sobirov Otabek Olimjonovich

*Doctor of Economic Sciences (DSc),  
Associate Professor.*

*Department of Accounting,  
Namangan State Technical University,  
Namangan, Uzbekistan. Email: oosobirov@gmail.com  
ORCID: 0000-0002-0415-0802*

**Abstract.** *This article provides an overview of scientific research on the conceptual structure of management accounting. The conceptual foundations of the organization of management accounting in economic entities are highlighted, the factors that influenced the formation of management accounting, as well as an analysis of the current state of development of management accounting are described. The article also considers the role of regulatory legal documents in the development of management accounting. In addition, the article provides an overview of the research and approaches of foreign and domestic economists who have studied management accounting. At the end of the article, conclusions and scientific proposals for the development of management accounting are presented.*

**Keywords.** *Management accounting, conceptual foundations, economic accounting, costs, financial statements, financial analysis, responsibility centers, information transfer, modern accounting.*

### **Kirish.**

Ta’kidlash lozimki xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun uzluksiz nazorat tizimini joriy qilish, shuningdek ko’p tarmoqli subyektga aylantirish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan va bu bubungi kunga kelib asosiy vazifaga aylandi. Xo’jalik yurituvchi subyektlarni samarali boshqarish ko’p jihatdan uning faoliyati, mahsulot (ish, xizmat)larining turlari, bo’linmalari bo’yicha natijaviy ma’lumotlarga to’liq erishish, ularni chuqur tadqiq etish va zaruriy chora-tadbirlarni qo’llashga bog’liqdir. Bunda eng asosiy o’rinni xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo’yicha natijaviy axborotlariga erishish egallaydi. Boshqaruv hisobining tashkiliy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishda eng asosiy nazariy masala bo’lib uning konseptual negizlarini tadqiq etish hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko’rsatmoqdaki, nafaqat jahon amaliyotida boshqaruv hisobining yagona bir kanseptual modeli yo’q. Ya’ni, har bir mamalakt, iqtisodiyot, uning tarmoqlari, xo’jalik yurituvchi subyektlari uchun o’z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida-alohida bir-biridan mazmunan ham shaklan farqlanuvchi boshqaruv hisobi tizimlari mavjud.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobitlarni xalqaro standartlar talablri asosida tuzish va yuritish zaruriyatini yuzaga kelishi boshqaruv hisobini rivojlantirishga ham katta turtki bo’lmoqda. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risidagi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni, O’zbekiston





Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi PQ-4812-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan Institute of Management Accountants (IMA), Pricewaterhouse Coopers, Deloitte & Touche, KPMG, University of South Florida (AQSh), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan olib borilgan.

Boshqaruv hisobining konseptual negizlari borasida olimlar o‘rtasida ham yakdillik mavjud emas. Olimlarni yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, J.Berfeldning ta’kidlashicha “Boshqaruv hisobining konseptual asoslari: xarajatlar hisobidan, schyotlar rejasidan, hisobotlar tizimidan hamda xarajatlar tahlilidan tashkil topadi”.

I.Kabb, J.Innes va F.Mitchellarning fikricha “Boshqaruv hisobining konseptual asosini: xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash, byudjetlashtirish, hisobot shakllari hamda prognozlashtirish” tashkil etadi.

Ch.T.Xorngren va Dj.Fosterlarning ta’kidlashlaricha “Boshqaruv hisobining konseptual asoslari: xarajatlar hisobi, tannarxni hisoblash, rejalashtirish, byudjetlashtirish, strategik nazorat, faoliyatga baho berish, prognozlashtirishdan iborat”.

D.Kieso, S.Devidson va M.Maxerlarning fikricha boshqaruv hisobining tarkibini ‘xarajatlar hisobi, xarajatlar tahlili, byudjetlashtirish, rejalashtirish, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotlar tahlili hamda nazorat” faoliyatlarini tashkil etadi.

B.Xasanovning fikricha esa boshqaruv hisobining tarkibiy qismi “byudjetlashtirish (rejalashtirish), xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, javobgarlik markazlari bo‘yicha segmentar hisob va hisobot, ichki xo‘jalik bulinmalari o‘rtasida transfert bahoni shakllantirishdan iborat”.

Yuqorida qayd qilingan fikr va mulohazalardan ko‘rinadiki, boshqaruv hisobining barcha mamlakatlarda, iqtisodiyotlarda hattoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham yagona bir qabul qilingan tizimi mavjud emasligini tushunish mumkin. Buning bir qancha asosiy sabablari mavjud, ularga to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir:

boshqaruv hisobining xalqaro qabul qilingan yagona bir tizimi mavjud emasligi;

boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish qonun yoki yo‘riqnomalarda talab etilmaganligi;

biror-bir mamlakatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv hisobini yuritishi shart emasligi;

yuqori tashkilotlar tomonidan boshqaruv hisobini yuritish talab etilmaganligi;

boshqaruv hisobining iqtisodiy samarasini bevosita hisob-kitob qilib ko‘rib bo‘lmasligi, ya’ni boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish xarajatlari u beradigan samaradan yuqori bo‘lgan taqdirda uni amalga oshirish maqsadga muvofiq emas va shu kabilar.

Demak, boshqaruv hisobining konseptual tarkibi borasidagi jahon va respublikamizdagi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil etish natijasida uni tarkibiy qismlarga ajratishda turli xildagi





fikrlar mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Albatta, mana shu masalaning ayrim jihatlari bo'yicha yakdillik ham mavjud.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish, uni takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotimizda: ma'lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalaridan foydalanish, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan samarali foydalanildi va bu ishning natijadorligini ta'minlamoqda.

### **Tahlil va natijalar**

Ko'plab iqtisodchi olimlarning boshqaruv hisobi borasidagi yondashuvlarida, ya'ni boshqaruv hisobining konseptual asosining - xarajatlar hisobi, tannarxni hisoblash, byudjetlashtirish va tahlil qismlarini mohiyatini ochin berishda qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Shunday holatning mavjudligi sababli, respublikamizda boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish va yuritishni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida o'z taklifimizni ishlab chiqdik.

Bizning fikrimizcha, uning tarkibiga: byudjetlashtirish, rejalashtirish, taxminlash, aylanma mablag'larni boshqarish, faoliyatni baholovchi asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish, xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, boshqaruv hisobi uchun schyotlar rejasi, boshqaruv va moliyaviy hisobdagi xarajat guruhlarini o'zaro muvofiqlashtirish, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash, ichki segmentar hisobot tizimi, boshqaruv hisobi yozuvlari bilan moliyaviy hisob yozuvlarini muvofiqlashtirish tartibi, ichki iqtisodiy tahlil, zararsizlik nuqtasining tahlili, investitsion loyihalar tahlili, transfert baholarni shakllantirishni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobining konseptual tarkibi quyidagi maqsadlarni ko'zlashi bilan ahamiyatlidir:

xo'jalik yurituvchi subyektlarni butun xarajatlari byudjetlashtirish orqali amalga oshiriladi va bu turli chetlanishlarni oldini oladi;

xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, bu esa foyda, xarajat va javobgarlik markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini oshiradi;

mahsulot tannarxini zamonaviy usullar yordamida hisoblash imkoniyatini ta'minlaydi;

xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'tgan va joriy davrlar uchun tahlilini amalga oshirish kelgusida strategik qarorlar qabul qilish, shuningdek subyektlarni strategik prognoz balansini tuzish imkoniyatini yaratadi.

Xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish foyda, xarajat va mas'uliyat markazlari bo'yicha va boshqa boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Bu bizga xarajatlarni kalkulyastiya moddalari bo'yicha ta'kidlangan markazlarda mujassamlashuvini, uning to'g'ri hisobga olinishini, nazorat va boshqaruv tahlilini o'tkazishda, zaruriy chora-tadbirlarni qo'llashda rahbariyatga juda qo'l keladi.

### **Xulosa.**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz va buning natijasida quyidagilarga erishiladi:

xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etish hamda samarali yuritishning uslubiy jihatlarni to'g'ri baholash imkonini beradi;





xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlariga ichki imkoniyatlarni baholashga, hozirgi globallashtirish sharoitida tashqi muhit omillarini hisobga olish hamda ularni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatini beradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali tarzda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma'lumotlarning asoslanganligi ta'minlanadi, strategik ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish imkoniyati yaratiladi, mavjud variantlar ichidan samaralisini tanlash imkoniyati kengayadi;

ishlab chiqarishda segmentlar bo'yicha xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati oshadi;

mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tizimli tashkil etish, nazorat qilish va mahsulotlar xarakati haqida operativ ma'lumotlar olish imkoniyati oshadi;

cheklangan resurslar sharoitida mahsulot ishlab chiqarish ko'nikmasi shakllantirishga erishiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz iqtisodining barcha tarmoqlarida boshqaruv hisobini faoliyat turlari bo'yicha shakllantirish va amaliyotga tadbiiq etish zamon talabidir. Balki resurslardan oqilona, samarali foydalanish, xarajatlarni imkoniyat darajasida, asosli ravishda pasaytirish evaziga foyda miqdorini oshirishdir.

Buning uchun esa boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo'yicha tashkil etish va yuritish lozim. Umuman olganda xarajatlarni boshqaruv hisobini tadqiq etish kelgusida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi va bu boradagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sobirov O.O. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2026-y., 87 b.

2. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobi-2. Darslik. Namangan. SUNRISE-PRO nashriyoti. 2024-yil.

3. Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. /iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2020 y., 69 b.

4. Sobirov, O.O. “Improvement of management accounting in economic entities”. Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI (2022).

5. Sobirov O.O. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirishning dolzarb masalalari. Monografiya. Namangan. //N.: «SUNRISE-PRO» nashriyoti, UO'K: 657.(075.8), KBK: 65.052.2 S-54. ISBN:978-9910-631-39-9. Namangan-2025-yil. 148 bet.

6. Sobirov O.O. Innovative directions of organizing management accounting in business entities. Central Asian Journal of innovations on Tourism Management and Finance. ISSN:2660-454X. Spain. Las Palmas de Grand Canaria. Vol.6. No1 (2025) oak.uz/pages/4802. 69-73pp.

